XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 24 - iyun VI-65-64-10-142-K/23 Piskent tumani hokimligi

Piskent tumandagi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi chegaralarini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tuzish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 303-son, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari hamda “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi chegaralarini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tuzish yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni va vakillar iltimosnomasini ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari Piskent tuman Kengashi, **qaror qiladi:**

1. “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini kengashining mahalla chegaralarini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish to‘g‘risidagi iltimosnomasi ma'qullansin.

2. Davlat kadastr agentligi tuman bo‘limi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini ikkiga bo‘lish orqali yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududi chegaralarini ko‘chalar kesimida aholiga qulay sharoitda ikkiga ajratish va mahalla fuqarolar yig‘inlariga biriktirib berish choralarini ko‘rsin.

3. “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish yo‘li orqali yangi tashkil etilishi belgilangan mahalla fuqarolar yig‘inlari aholi, xonadon va oila sonlari 1 va 2 ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya (A.Umarov) hamda kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligiga ko‘maklashish markazi rahbari M.Miryunusov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Yakubov N.G.**

Xalq deputatlari Piskent tuman
Kengashining
2023-yil 24-iyundagi
VI-65-64-10-142-K/23-son qaroriga
1-ilova

“Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini ikkiga bo‘lish orqali tashkil etiladigan yangi mahalla tarkibiga kiradigan aholi va xonadon to‘g‘risida

MA'LUMOT

№	**MFYdagi ko‘chalar nomi**	**Xonadon soni**	**Aholi soni**
Yangi tashkil etiladigan MFY bo‘yicha jami		**836**	**3038**
1	Bunyodkor	58	234
2	Yoshlik	64	430
3	Navruz	72	362
4	Gulshan	69	390
5	Istiqbol	85	419
6	Navbaxor	240	844
7	Gulshan dom	196	210
8	SPTU - 5 dom	40	149

Xalq deputatlari Piskent tuman
Kengashining
2023-yil 24-iyundagi
VI-65-64-10-142-K/23-son qaroriga
2-ilova

Piskent tumani "Birlik" mahalla fuqarolar yig‘ini negizida qoladigan aholi, xonadon va oilalar to‘g‘risida

MA'LUMOT

№	MFYdagi ko‘chalar nomi	Xonadon soni	Aholisi soni
Birlik MFY bo‘yicha jami		**852**	**2810**
1	Birlik bn	168	586
2	Orom	26	112
3	Sadokat	20	63
4	Guzallik	23	94
5	Nafosat	20	70
6	Tokzor	210	416
7	Yashnobod	40	105
8	X Niyozov	68	324
9	Farovon	72	322
10	Namunali uylar	149	488
11	Salomatlik	18	117
12	Ma'rifat	38	113